

S.N.Xamrayeva
Professor, iqtisod fanlari doktori
G.O.Xo'janova
Assistant
Qarshi davlat texnika universiteti
O'zbekiston

HUDUDLARDA TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ASOSIY MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada hududlarda tabiiy resurslardan samarali foydalanishning dolzarb muammolari va mavjud imkoniyatlari tahlil qilinadi. O'zbekistonning geografik va tabiiy resurs salohiyatiga tayangan holda, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, havo sifati va suvdan oqilona foydalanishni ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlar ko'rsatib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** tabiiy resurslar, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot energiya samaradorligi, ekologik muammolar, qayta tiklanuvchi energiya, hududiy rivojlanish, ekologik xavfsizlik, oqilona foydalanish.*

S.Khamrayeva
Professor, Dsc.
G. Khojanova
Assistant
Karshi State Technical University
Uzbekistan

MAIN PROBLEMS AND OPPORTUNITIES OF EFFECTIVE USE OF NATURAL RESOURCES IN THE REGIONS

***Abstract:** This article analyzes the current problems and existing opportunities for the effective use of natural resources in the regions. Based on the geographical and natural resource potential of Uzbekistan, priority areas such as*

increasing energy efficiency, introducing renewable energy sources, ensuring air quality and rational use of water are indicated.

Key words: *natural resources, sustainable development, green economy, energy efficiency, environmental problems, renewable energy, regional development, environmental safety, rational use.*

С.Н.Хамраева

Профессор, д.э.н.

Г.О.Ходжанова

Ассистент

Каршинский государственный технический университет

Узбекистан

ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ В РЕГИОНАХ

Аннотация: *В данной статье анализируются текущие проблемы и имеющиеся возможности эффективного использования природных ресурсов в регионах. Исходя из географического и природно-ресурсного потенциала Узбекистана, обозначены приоритетные направления, такие как повышение энергоэффективности, внедрение возобновляемых источников энергии, обеспечение качества воздуха и рациональное использование воды.*

Ключевые слова: *природные ресурсы, устойчивое развитие, зеленая экономика, энергоэффективность, экологические проблемы, возобновляемая энергетика, региональное развитие, экологическая безопасность, рациональное использование.*

Kirish. Zamonaviy global dunyo iqtisodiyotda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalasi barqaror rivojlanish strategiyalarining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Har bir davlat o'zining tabiiy-geografik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan sohalarni rivojlantirish orqali diversifikatsiyalash yo'lidan bormoqda. Bu esa

sanoat, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va energetika va axborot texnologiyalari kabi tarmoqlarning ahamiyatini oshirib, tabiiy resurslardan foydalanuvchi an'anaviy tarmoqlar samaradorligini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham tabiiy resurslarga tayanadigan sohalarning transformatsiyasi, resurslardan foydalanishda samaradorlik va ekologik barqarorlikni ta'minlash dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Ayniqsa, hududlar kesimida mavjud salohiyatdan foydalanish darajasining turlicha ekani, mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi.

1-jadval

Energiya samaradorligi bo'yicha davlatlar taqqoslama tahlili

Davlat	Energiya samaradorligi (ko'rsatkich)	Qayta tiklan. energiya ulushi (%)	Havo ifloslanishi darajasi (PM2.5)
O'zbekiston	3.0	10	45
Qozog'iston	1.5	15	30
YeI o'rtacha	1.0	35	15

O'zbekiston Respublikasida resurslardan foydalanish samaradorligi Yevropa Ittifoqi hamda boshqa yuqori o'rta daromadli davlatlarnikiga nisbatan ancha past. Xususan, suvdan foydalanish darajasi samarasiz bo'lib, yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi Yevropa Ittifoqi ko'rsatkichidan qariyb uch baravar, qo'shni Qozog'istonnikidan esa ikki baravar yuqori bo'lmoqda.

O'zbekiston tabiiy resurslarga boy hududlardan biri bo'lib, sanoat, qishloq xo'jaligi va energetika sohalarida ekologik yondashuvlarni joriy etish uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish hali hanuz murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, O'zbekistonda resurslardan foydalanish samaradorligi global ko'rsatkichlarga nisbatan ancha past ekani bir qator muammolarga sabab bo'lmoqda:

1. **Energiya samaradorligining pastligi:** YIM birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rtacha ko'rsatkichdan qariyb uch baravar, qo'shni Qozog'istondan esa ikki baravar yuqori

2. **Suv resurslarining samarasiz boshqaruvi:** Agrar iqtisodiyotga tayanayotgan O'zbekiston uchun suv resurslaridan oqilona foydalanish strategik masala hisoblanadi. Ayni paytda suv sarfi ortiqcha bo'lib, ekstensiv sug'orish tizimlari resurslarni isrof qilmoqda.

3. **Atmosfera havosining ifloslanishi:** Aholi zich yashaydigan hududlarda, ayniqsa sanoat zonalarida havo sifati past bo'lib, shamol orqali tarqaladigan qum va chang zarrachalari salomatlikka tahdid solmoqda.

4. **Yer degradatsiyasi va cho'llanish:** Yomon boshqarilgan dehqonchilik va yaylov tizimlari natijasida yer resurslari degradatsiyaga uchramoqda, bu esa hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

5. **Mehnat bozori moslashuvchanligining pastligi:** "Yashil" iqtisodiyotda faoliyat yurita oladigan malakali kadrlar sonining yetarli emasligi, ayniqsa hududiy darajada, resurslardan samarali foydalanishga to'siq bo'lmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda tabiiy resurslardan foydalanishni optimallashtirish bo'yicha bir qator istiqbolli imkoniyatlar mavjud:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 04-oktabrdagi PQ-4477-sonli "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga binoan, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, yashil energiya manbalarini joriy etish, ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga investitsiya kiritish orqali resurslar boshqaruvi sohasida tub o'zgarishlarga erishish rejalashtirilgan¹.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar kunidagi PF-16-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 4-oktabr, PQ-4477-son qarori

atrof-muhit muhofazasi, resurslarni tejash va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish orqali yashil rivojlanish tamoyillari belgilab berilgan².

3. Qashqadaryo viloyatida dehqonchilikning YaIMdagi ulushi yuqoriligicha qolayotgani noyob iqtisodiy hodisa sifatida ko'rib, agrar sektorning barqaror resursga aylanish salohiyatini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ekologik turizm, yashil energetika va qayta tiklanuvchi resurslarga asoslangan iqtisodiy modelni joriy etish mumkin.

4. Yashil texnologiyalarni joriy etish: Quyosh, shamol va bioenergiya asosidagi qayta tiklanuvchi manbalarni joriy etish orqali resurslar yukini kamaytirish, ayniqsa elektr energiyasida energiya intensivligini pasaytirishga xizmat qiladi.

5. Hududlardagi universitetlar va tadqiqot institutlari bazasida yashil texnologiyalarni tadqiq qilish, mahalliy sharoitga moslashtirish va ularni ishlab chiqarishga integratsiya qilish imkoniyatlari mavjud.

Xulosa. O'zbekistonda va uning hududlarida tabiiy resurslardan samarali foydalanish nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlikning asosiy omillaridan biridir. Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha qabul qilingan huquqiy-me'yoriy bazalar, mavjud tabiiy salohiyat va xalqaro tajribadan foydalangan holda quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha harakat qilish zarur:

- Energiya samaradorligini oshirish va resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish;
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hajmini kengaytirish;
- Iqlim o'zgarishlariga moslashuvchan infratuzilma yaratish;
- Resurslardan foydalanishda raqamli boshqaruv va monitoring tizimlarini joriy etish;
- Mehnat bozorini yashil iqtisodiyot talablari asosida yangidan shakllantirish.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar kunidagi PF-16-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni

Tabiiy resurslarni samarali boshqarish orqali nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlik ham ta'minlanadi. Bu esa, o'z navbatida, hududiy rivojlanishning yangi, inklyuziv va barqaror modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 4-oktabr, PQ-4477-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar kunidagi PF-16-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni
3. Mirzayev K.Dj., Ulug'murodov F.F, Rabbimov E.A. Tabiiy resurslariqtisodiyoti Matn: o'quv qo'llanma/Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024-458 bet.
4. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
5. O'zbekistonda yashil iqtisodiyot holati bo'yicha tahliliy hisobot, 2023-yil. <https://www.uz.undp.org>
6. Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB). Green Economy Transition Framework: Uzbekistan Country Report, 2023. <https://www.adb.org>
7. Jahon Banki. Uzbekistan: Climate Risk Profile, 2023-yilgi hisobot. <https://climateknowledgeportal.worldbank.org>
8. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA). Uzbekistan Energy Profile – Renewable Energy Developments, 2024. <https://www.iea.org>